

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARDA ERKAK STEREOTIPINING OTA VA FARZAND OBRAZLARIDA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Z.Y.Sadiqov

Namagan davlat universiteti fil.fan.dok. (DSc), prof

Rajapova Ro'zigul Mansurbek qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20605347>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarda erkak stereotipining ota va farzand obrazida aks ettirilishi lingvokulturologik jihatdan tahlil etildi. Ikkala til egalari madaniyatining o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Tahlillar natijasida yakuniy xulosalarga kelindi.*

Kalit so'zlar: *maqol, erkak, ota, farzand, lingvokulturologik tahlil*

Gender masalasi va uni til materiallari orqali o'rganish zamonaviy gumanitar fanlarda, ayniqsa lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, paremiologiya hamda tarjimashunoslik chorrahasida dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Maqollar tilda tayyor holatda saqlanadigan, avloddan avlodga o'tadigan va ko'pincha normativ-axloqiy baho berish, ijtimoiy rol va kutilmalarni mustahkamlash vazifasini bajaradigan paremiologik birliklar sifatida jins (sex) va gender (gender) haqidagi kollektiv tasavvurlarni ayniqsa ixcham va "kodlangan" tarzda aks ettiradi. Shuning uchun ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarda erkak obrazi (masculinity) ning qanday semantik-pragmatik model sifatida shakllanishi, u qaysi qadriyatlar bilan bog'lanishi, qanday ijtimoiy rollar va xulqiy me'yorlar orqali ifodalanishi, shuningdek, bu birliklarni tarjimada muqobillashtirish jarayonida nimalar yutilishi yoki yo'qolishi masalalari ilmiy jihatdan izchil tadqiqni talab qiladi. M.Muhammamedova hamma maqollar yaratilish tarixi va odamlarning yashash tarzini ifodalashiga ko'ra bir-biridan farq qilishi haqida fikr bildiradi [3]. Paremiya qadimiy tajribaning "kristallashgan" ko'rinishi bo'lgani bois, ularning lingvokulturologik talqini alohida ehtiyotkorlikni taqozo etadi: maqolda ifodalangan stereotiplar ko'pincha tarixiy-iqtisodiy sharoitlar, patriarxal ijtimoiy tuzum, mehnat taqsimoti, oilaviy munosabatlar va diniy-axloqiy diskurs bilan chirmashgan bo'ladi. M.Jumabayeva esa maqollarning tub ildizi Sharq falsafasiga borib taqaladi deya fikr yuritadi [2]. Demak, "erkak obrazi"ni maqollar orqali qiyosiy tahlil qilish, bir tomondan, ikki xalq madaniy turmush tarzlaridagi umumiylik va farqlarni ko'rsatadi, ikkinchi tomondan esa tarjima amaliyotida pragmatik ekvivalentlikka erishishning murakkab mexanizmlarini yoritadi.

Nazariy nuqtayi nazardan, gender – biologik jinsdan farqli o'laroq – sotsial-madaniy konstruktsiya bo'lib, u jamiyatda "erkaklik" va "ayollik"ka yuklangan rollar, xulq normativlari, ijtimoiy status va kommunikativ kutilmalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Bu yondashuv tilning faqat aks ettiruvchi (reflective) emas, balki konstruktiv (constitutive) kuchga ham egaligini ta'kidlaydi: ya'ni til birliklari (jumladan, maqollar) gender haqidagi tasavvurlarni nafaqat tasvirlaydi, balki ularni mustahkamlaydi va qayta ishlab, avlodlar ongiga singdiradi. O'zbek va ingliz paremiologik fondida erkakka oid maqollar ko'pincha "oila boshlig'i", "mehnat qiluvchi", "himoyachi", "so'zida turadigan", "sharm-hayo va nomusni asrovchi", "obro'-e'tibor egasi" kabi konseptual yo'nalishlarda to'planadi: shu bilan birga, ayrim o'zbek maqollarida erkakning ijtimoiy javobgarligi, jamoaviy mas'uliyatlari yoki axloqiy yo'l-yo'riq beruvchanlik kabi ijobiy fazilatlarini ham ulug'lanadi [1]

Ingliz va o'zbek tillaridagi erkak obrazini qiyosiy tahlil qilishda avvalo nominativ belgilar – “man”, “husband”, “father”, “gentleman”, “boy”, “son” kabi birliklar hamda o'zbek tilidagi “erkak”, “er”, “ota”, “yigit”, “o'g'il” kabi leksik markerlar – qanday pragmatik vazifa bajarishini kuzatish muhim. Biroq paremiya semantikasi ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri nomlashga tayanmaydi: erkak obrazi ko'chma ma'no, metonimiya, timsollar (masalan, “arslon”, “bo'ri”, “ot”, “tog'”) yoki kasb-hunar, ijtimoiy mavqe bildiruvchi obrazlar orqali ham quriladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda biz erkak stereotipini aks ettirgan maqollarni quyidagi tematik-guruhlariga bo'lib chiqdik:

Erkak – oila boshlig'i

Er qoplar, xotin saqlar

Bizning millatimiz islom diniga e'tiqod qilganligi tufayli ko'plab madaniy urf-odatlarimiz, milliy qarashlarimiz muqaddas dinimiz ta'sirida yaralgan. Ayniqsa, oilada erkak va ayolning o'rnini haqidagi milliy qarashlarimiz bunga yaqqol misol bo'la oladi. Qur'oni Karim kitobimizda erkaklar oilani moliyaviy jihatdan ta'minlashi yozilgan. Yuqorida berilgan maqol erkaklarga yuklatilgan ilohiy vazifa xalqimizning kundalik turmush tarzida allaqachon odatiy holga aylangani ifodalaydi. *Bu yerda “qoplar” so'zi “topar” degan mazmunda anglashiladi.* Shuningdek, maqolning ikkinchi qismida esa xalqimiz ayollarining erlari topgan rizqni tejab tergab sarflashi “saqlar” so'zi orqali ifodalangan.

Erli uy – eshikli uy

Bu maqolda erkaklar oiladagi ichki qonun-qoidalarini tartibga soluvchi shaxs sifatida gavalantiriladi. Ya'ni bu yerda “eshikli” so'zi ramziy ma'noda qo'llangan ya'ni “nazorat qiluvchi”, “himoya qiluvchi” degan mazmun yuzaga keladi. Maqolning umumiy mohiyatida, erkak oilada kirish chiqishni nazorat qiluvchi, himoya qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Ingliz xalq maqollari orasida erkaklarning uyni kam-u ko'stini ta'minlovchi xislati tasvirlangan maqollar uchramaydi.

Erkak – ota obrazida

Oltmishga kirgan otadan osh so'rama

Bu maqol ota qariganda farzandni boqish mas'uliyatidan ancha yiroqlashgan davrga kelgani va aksincha, bu vaqtda farzand otani e'zozlashi kerakligi aks etgan. Oltmish yoshda ular kuch-quvvat qolib farzandlarining ko'magiga, ehtiromiga muhtoj bo'lishi tushuntiriladi.

Ota g'ayratli bo'lsa,

Bola ibratli bo'ladi.

Xalq orasida har bir bola uyida ko'rgan narsalari asosida tarbiyalanadigan degan qarashni tasvirlagan bu maqolda farzandning otaning hatti-harakatlari orqali o'ziga xulosa chiqarib voyaga yetishi ifodalangan. Ingliz tilida ham aynan shunga o'xshash *Like father, like son* maqoli mavjud

Ota o'lib bola qolsa – murodiga yetgani,

Bola o'lib ota qolsa – armoni ichida ketgani

Har bir ota-ona bu dunyoda bir zurriyot qolishini, ya'ni davomchisi bo'lishini xohlaydi. Yuqorida berilgan xalq maqolida o'zbek otalarining o'g'iliga bo'lgan mehr-oqibati tasvirlangan. Ota farzandini voyaga yetgkazib bu dunyodan ko'z yumsa, bu tabiiy hol deb qaraladi. Biroq, farzand otadan oldin vafot etsa, bu fojiali, ayanchli holat sifatida qaraladi. Bunday umrining

oxirigacha, ko'ngilida armon bilan yashashi aks ettiriladi. Ingliz tilida ham bu maqolga yaqinroq bir maqol bor:

Young men may die,

Old man must die.

(yosh o'lishi mumkin, qari o'lishi shart)

Tarjimasi: Qari o'lsa – davlat,

Yosh o'lsa – qiyomat

Erkak – farzand obrazida

Yaxshi o'g'il otadan olti botmon ziyod bo'lar,

Yomon o'g'il otadan olti botmon kam bo'lar.

Mazkur maqolda o'g'il farzandning fazilati yoki nuqsoni otaga ta'sir qilishi aytilgan, qolaversa, bu yerda o'g'il farzandning odobli xulqi, fazilatlari otanikidan ham ustun turishi yoki past bo'lishi ehtimolligi ko'rsatiladi. Ya'ni, o'g'il farzand yaxshi bo'lsa, u otasini nomini ulug'lashi, obro'sini oshirishi mumkin. Biroq farzand noqobil, yomon bo'lsa, otasining obro'si xalq orasida tushurib, uni qilgan mehnatlarini ham yo'qqa chiqarishi mumkinligi oson anglashiladi.

Otali o'g'il – xo'jali qul

Bu maqolda har bir farzand uchun ota misoli xo'jayindek deya tasvirlanadi. Chunki o'zbek oilalarda oila boshlig' ota hisoblangani bois uning so'zi qonundek qabul qilinadi. Farzandlar ham otalarining so'zlari ikki qilmasliklari shart. Garchi mazkur maqol juda ixcham shaklda bo'lishiga qaramay, u butun millat oilalarining milliy madaniy etiket normalari ko'z oldimizda aniq-ravshan chizib bera oladi.

Ingliz xalq maqollarida o'g'il farzandlar uchun atalgan maqollar salmog'i o'zbek tilidagi qaraganda ancha kamroq. Ammo quyidagi o'g'il farzand haqidagi quyidagi maqol juda mashhur.

My son is my son till he gets him a wife

(O'g'lim uylanguncha o'g'lim)

Bu ingliz maqoli yigitlarning ko'pincha oila qurgandan keyin ota-onasi unutilib qo'yishini tasvirlab beradi. Haqiqatanam, ingliz madaniyatida yoshlar turmush qurgandan keyin ota-onasidan deyarli xabar olmay, o'zining shaxsiy muammolari bilan band bo'lib ota-onasini yolg'izlatib qo'yadi. Bu ingliz xalq uchun normal holat sifatida qabul qilinadi va ota-onalar farzandlarini mustaqil hayot kechiryotgani hech qanday e'tirozlarsiz qabul qiladi.

Umuman olganda, o'zbek xalq maqollarida erkak stereotipida ota obrazi g'amxo'r, farzandi uchun hamisha qayg'uruvchi, o'g'il farzand esa otaga itoatkor, otadan o'rnak oluvchi shaxs sifatida tasvirlansa, ingliz xalq maqollari to'plamida otalarning farzandlariga bo'lgan sevgi-muhabbatini ko'rsatib beruvchi maqollar uchramasada, o'g'il farzandlarning turmush qurgandan keyin o'zagarishi aks etgan. Ammo ikkala xalq madaniyatida ham ota farzand tarbiyasida muhim rol o'ynovchi shaxs sifatida talqin etiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. G, Akhmedova. "Linguocultural representation of Man and Woman in English and Uzbek aphorisms." *Western European Journal of Linguistics and Education* (2026): 89-92.
2. M, Jumabayeva. *O'zbek va ingliz maqollarinig qiyopsiy organilishi*. Toshkent: Fanlar

akademiyasi, 2010.

3. M, Muhammedova. "Translation method of English and Uzbek proverbs on topic "Man and his character"." *Проблемы педагогики* (2019): 21-22.